


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**06.01.06 – SABZAVOTCHILIK IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOV LARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2024

Annotatsiya:

Dastur 06.01.06 – Sabzavotchilik ixtisosligiga kiruvchilar uchun 70811901 – Sabzavotchilik va polizchilik, 70812001 – Himoyalangan yer sabzavotchiligi, 70811902 – Kartoshkachilik mutaxassisliklarining 2022-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Xayitov M.A.	–	SamDU, Meva sabzavotchilik va uzumchilik kafedrası mudiri, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Normurodov D.S.	–	SamDU, Meva sabzavotchilik va uzumchilik kafedrası professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori
Xalmirzayev B.X.	–	SamDU, Meva sabzavotchilik va uzumchilik kafedrası dotsenti

Dastur Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutining 2024-yil 30-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

06.01.06 – Sabzavotchilik ixtisosligi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u meva va rezavorlar, sabzavotlar, kartoshka va poliz mahsulotlarining kelib chiqishi, tarqalish tarixi, xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, kimyoviy tarkibi, hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo‘lgan talabi va soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikma, mutassaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

06.01.06 – Sabzavotchilik ixtisosligining vazifasi – tadqiqotchilar bilimlarini chuqurlashtirish va bog‘ sharoitida mevalar yetishtirishning ilg‘or va innovasion texnologiyalari to‘g‘risida, meva va uzumlarni ahamiyati, tashqi muhit omillariga ko‘ra guruhlarga ajratish, ko‘paytirish usullarini o‘rganish, o‘simliklarning o‘sish va rivojlanish bosqichlarini bilish mevalarni urug‘lari hamda ko‘chatlari tuzilishi talabani ushbu fan bo‘yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs ishi va bitiruv ishlarini bajarish bilan real sharoitida qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma hosil qilishdan iboratdir.

06.01.06 – Sabzavotchilik ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi talabgorlar uchun 70811901 – Sabzavotchilik va polizchilik, 70812001 – Himoyalangan yer sabzavotchiligi, 70811902 – Kartoshkachilik mutaxassisliklari o‘quv rejasiga asosan ixtisoslik fanlari bo‘yicha: “Sabzavotchilik”, “Himoyalangan yer sabzavotchiligi”, “Polizchilik”, “Sabzavot va poliz ekinlari biologiyasi”, “Kam tarqalgan sabzavot ekinlarini yetishtirish texnologiyasi” fanlaridan savollar shakllantirilgan. Bu fanlar o‘z negizida qamrab olgan ma‘lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

Sabzavotchilik fani bo‘yicha:

Sabzavotchilikning hozirgi holati va istiqboli. Sabzavotchilikni mustaqillik yillarida jadal rivojlanish sabablari. Sabzavotlar iste‘mol qilinadigan qismi kimyoviy tarkibini o‘zgarishiga sabablar va ular tarkibi sifatini yaxshilash usullari. Sabzavotlarni botaniq ta‘rifi, xayotini davomiyligiga kelib chiqqan makonlari ta‘siri, oziq-ovqatga ishlatilishi bo‘yicha guruhlash. Mavjud sabzavot ekinlari morfologik va botaniq tuzilishlarini urganishdan maqsad. Issiqlik, yorug‘lik, namlik, tuproq va havo oziqasi ta‘sirida o‘simliklar filogenezdagi o‘zgarishlar. O‘sish va rivojlanish bosqichlarini o‘tishi davrida tashqi muhit ta‘siri. O‘sish va rivojlanish bosqichlarini (fazalarini) bir va ikki yillik sabzavotlarda o‘tishi uchun zarur buladigan omillar. Ikki yillik sabzavotlarni hayotini birinchi yili gulpoya chiqarishi yoki ikkinchi yili gulpoya chiqarmaslik sabablari. Rivojlanishi davrida har ikki tur, ko‘p yilliklar uchun yorug‘lik va kun uzunligi hamda haroratni ta‘siri. Tuproq va havo namligini o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishiga ta‘siri, rivojlanish bosqichida namlikka munosabati.

O‘simlik vegetativ va generativ organlarini hosil qilishida, kasallik hamda qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lishida makro va mikro elementlarni ahamiyati. NPK

larni tuproqqa solish muddatlari va me'yorlari. Ularni urug'idan va vegetativ usulda ko'paytirishlarning ijobiy va salbiy tomonlari. Vegetativ hamda generativ usulda ko'paytirishning ahamiyati, urug'ni ekishga tayyorlash usullari. O'zbekiston iqlim sharoitida sabzavotlarni ekish muddatlari va usullari, ularni turli muddatlarda ekish sabablari. Ertagi sabzavotlar uchun egatni kuzda tayyorlab qo'yish. Sho'rlangan yerlarni ertagi va kechki sabzavotlar uchun tayyorlashning farqi. Tomatdoshlarni ahamiyati, tarqalishi, tashqi muhit omillariga munosabati va ko'paytirish usullari. Ildizmevalilarni ahamiyati, biologik xususiyatlari va tumanlashtirilgan navlari. Sabzi, turp, osh lavlagi, va boshqalarning kelib chiqqan makoni, harorat, namlik va tuproq oziqasiga munosabat hamda tumanlashtirilgan navlari. Yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, parvarish qilish va hosilni yig'ishtirish. Piyoz, uning turlari va sarimsoqni kelib chiqishi, tarkalishi, iste'moldagi va oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati, shifobaxshlik xususiyatlari. Piyozni almashlab ekishdagi o'rni, o'tmishdosh ekinlarga munosabatlar. Ekish normasi, sxemasi, chukurligi va muddatlari. Begona o'tlarga qarshi gerbisidlar qo'llash. Qator orasiga ishlov berish, sug'orishlarni uni rivojlanishiga ko'ra to'g'ri taqsimlash. Sarimsoq yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Karam turlarini farqlari, kimyoviy tarkibi, issiqlik, namlik, tuproq va havo oziqasiga munosabati hamda ularni sozlash usullari. Karamni almashlab ekishdagi o'rni, o'tmishdosh ekinlarga munosabati, ekish muddati, tuproq oziqasiga talabchanligi, ekilish qalinligi. Oqbosh va gulkaramni ertagi va kechki muddatlarda yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Bodring va sabzavot qovoqchalari biologiyasi, navlari, ekish muddatlari, sxemasi. Bodringni jadal texnologiya asosida yetishtirishning va hosilini yig'ishtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Bodring va sabzavotlar qovoqchalarini o'tmishdosh ekinlarga munosabati, yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, urug'ni ekishga tayyorlash, yagona qilish, qatorlar orasiga ishlov berish, oziqlantirish.

Polizchilik fani bo'yicha:

Polizchilikning hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqbollari poliz ekinlarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Poliz ekinlarini sanoat darajasida yetishtiriladigan tumanlari. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan poliz ekinlari turlari, xillari va navlari. Navlarning tuproq-iqlim sharoitiga talabi. Ko'paytirishning intensiv usullari. Standart navlarini tavsifi. Poliz ekinlarini kelib chiqish vatani, botanik belgilari, hayotini davomiyligi, iste'mol qilinadigan organlari, ishlab chiqarish hamda boshqa belgilariga ko'ra klassifikatsiyasi va ularni guruhlariga bulish.

Poliz ekinlarini morfo-biologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi. Qovun yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish, hosilni yig'ib olish. Tarvuz yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish, hosilni yig'ib olish. Qovoq yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish, hosilni yig'ib olish. Poliz ekinlar

ko'chatlarini yetishtirishni zamonaviy texnologiyasi. Nav tanlash. Tuproqni tayyorlash, uchastkani rejalash, begona o'tlarga qarshi ko'rashish, sug'orish, o'g'itlash va tuproqni yumshatish. Poliz ekinlarini qator oralariga ishlov berish tizimi. Yerga ishlov berish. Begona o'tlarga qarshi ko'rashishda gerbesidlardan foydalanish. Poliz ekinlarni sug'orish va o'g'itlash usullari va me'yorlari. Hosilni yig'ib-terib olish muddati ularning turi va nav xususiyatlariga, mahsulotga qo'yiladigan talabga va ular qanday maqsadlarda foydalanilishiga qarab belgilash.

Himoyalangan yer sabzavotchiligi fani bo'yicha:

Mamlakatimizda aholini sabzavot mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashni ahamiyati. Sabzavotchilikni tarmog'ini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar, hukumatimiz farmonlari va qarorlari. "Himoyalangan joy" va "Himoyalangan joy sabzavotchiligi" tarmog'i haqida tushuncha, uni ahamiyati. Fanning maqsadi va vazifasi. Himoya qilingan joylarda yetishtiriladigan sabzavotlarni ilmiy asoslangan iste'mol qilish me'yorlari. Chet davlatlarda va O'zbekistonda Himoyalangan joy sabzavotchiligini ahvoli va uni rivojlanishi. Yorug'likning ahamiyati va issiqxona sabzavot o'simliklarining unga bo'lgan talabi. Yorug'lik o'simliklar uchun energiya beruvchi manba hisoblanadi. Tarkibida xlorofil bo'lgan yashil o'simliklar nurli energiya yordamida organik moddalarni yaratish, to'plash qobiliyatiga ega. U o'z navbatida hosilni shakllantirishni ta'minlaydi. Yorug'lik yana nafas olish transpirasiyasi va moddalar harakati uchun sarflanadigan energiya manbai hisoblanadi. Himoyalangan yer inshootlarini qoplashda foydalaniladigan yorug'likni o'tkazuvchi materiallar va ularga qo'yiladigan talablar. Himoya kilingan joy sabzavotchiligida qo'llaniladigan oynalar, ularning tavsifi. Turli oynalarning ko'rinadigan, ultrabinafsha va infraqizil nurlarni o'tkazish qobiliyati. Oynaning salbiy va ijobiy xususiyatlari. Parnik va issiqxonalarni qoplashda qo'llaniladigan oynalar. Yangi istiqbolli yorug'lik o'tkazuvchan materiallar. Yarim qattiq va rulon shaklidagi stekloplastik, ulardan foydalanish. Polimer materiallarni mexanik, fizik xususiyatlari.

Sabzavot va poliz ekinlari biologiyasi fani bo'yicha:

Sabzavot va poliz ekinlarini o'sish va rivojlanish xususiyatlari. Sabzavot o'simliklarining birlamchi, ikkilamchi kelib chiqish makonlarining ekinlar tashqi muhit omillariga munosabatlari. Sabzavot ekinlarining kelib chiqish makonlari. Sabzavot ekinlarida filogeneza va ontogeneza. Yer ustki assimilyasiya va ildiz qismi hamda hosilning shakllanish qonuniyatlari. Ularning genetik mutanosibligi. Ekinlarning gullash bosqichiga o'tishda harorat va yorug'lik omillari, ularning bosqichli tartiboti. Issiqsevar va sovuqqa bardoshli ekinlar rivojlanishi. Ikki yillik sabzavotlarni haroratga munosabati. O'sishdagi davriylik. O'sish va rivojlanish bosqichlari.

Tashqi muhit omillarining ekinlar mahsuli shakllanishi, uning miqdori va sifatining ortishlariga moslashtirish uslublari. Tashqi muhitning iqlimiy tuproq (edafik) biologik (biotik) va antropogen mujassam (bevosita va bilvosita) omillar. Ularning qisqacha tavsiflari. Ekinlarning omillarga munosabatlarini aniklovchi kursatkichlar (talabchanlik, bardoshlik, sezuvchanlik). Omillarning bevosita va

bilvosita ta'siri. Ontogenezining turli pogonalarida ayrim omillarga turlararo, navlararo farqlanishlar. Sharoitlarni ekinlar talablariga moslashtirish. Noqulay sharoitlarga ekinlar chidamliliklarini oshirishning texnologik va seleksion usullari.

Sabzavot ekinlari hayotida harorat davriyligi, amaliy sabzavotchilikda uning kullanilishi. Haroratga talabchanlik, ontogenez davomida uning o'zgarishi va kursatkichlari: qulay va maksimal haroratlar. Bularning boshqa omillar xolatlariga muvofiq o'zgarishlari. Sabzavotlarni issiqlikka bo'lgan munosabatiga ko'ra guruhlash va ushbu xususiyatlariga ko'ra tasnifi (qishga yoki qattiq sovuqqa bardoshli, sovuqbardosh, issiq talab, jazirama issiqqa bardoshli). Sabzavot o'simliklarni issiqlikka bo'lgan munosabatiga ko'ra moslashtirish usullari – agrotexnik chora-tadbirlar.

Yorug'likning jadalligi (quvvati), quyosh nurlari spektral tarkibi, geografik joylanish, yil, kun, tun, vaqt belgilariga ko'ra nurlanishlar davomati. Turli sabzavot ekinlarining quyosh energiyasidan foydalanish koeffitsientlari. Aniq va tarqoq radiyasiyasi, fiziologik va fotosintez radiyasiyalar. Sabzavot o'simliklari hayotida yorug'likning davriyligi (fotoperiodizm), uning amaliy sabzavotchilikdagi mohiyati. Sabzavot ekinlarining yorug'lik kuchiga talablariga ko'ra guruhlanishi (juda kuchli, talab, talabchan kamroq talab, talab kilmovchilar), hamda kun uzunligiga ko'ra (uzun kunli, kiska kunli betaraflar) bulinishi. Ochiq dala va yopiq joylarda yorug'likni sozlash usullari (ekish muddatlari), qiyaliklardan foydalanish, ekinlarni joylashtirish shakli, qalinligi, qatorlar yo'nalishi, kulislar, qo'shimcha ekinlar, to'siqdash, kunni qisqartirish.

Havo tarkibi va tuproqda oksigen va karbonat angidrid miqdorlari, ularning ekinlar o'sishi va mahsuldorligiga ta'siri. Amaliy sabzavotkorlikda bu gazdan foydalanish. Havoni ifloslovchi (oltingugurt gazi, azot oksidi, ammiak, metan, azon va h.k.) gazlarga sabzavot ekinlarining munosabatlari. Havoda karbonat angidridni, tuproqda oksigenni ko'paytirish usullari. Fazodagi ifloslovchi gazlarga bardoshli ekinlar va navlar yaratish.

Sabzavot ekinlari hayotida suvni ahamiyati. Bu ekinlarning suvga talablari. Sabzavot ekinlarining transpirasion koeffitsienti, transpirasiya mahsuldorligi va suv o'zlashtirish koeffitsienti. Sabzavot ekinlarining suvni o'zlashtirishi va namga talabchanlik xususiyatlarini belgilovchi omillar Sabzavot ekinlari ildizlarining tuproqqa joylanishlariga ko'ra guruhlash. Ekinlarning tuproqdan suvni surish qobiliyatlari va uni sarflash xususiyatlariga ko'ra tasniflash. Sabzavotlarni tuproq namligiga munosabatiga ko'ra va havoning nisbiy namligiga muvofik guruhlash. Namlik sharoitlarini aniqlash ekinlarning suv sarflarini aniqlash usullari. Ochiq maydon va himoyalangan joylarda sernamlik va suvsizlik sharoitlarida namga talabchanlik shartlarini boshqarish.

Ekinlar rivojlanish bosqichlariga muvofik ravishda oziq elementlarni ishlatilishi. Gektaridan olinadigan mahsulot birligi uchun o'zlashtiriladigan o'rtacha sutkalik va jami ozuqa miqdori. Sabzavot ekinlarining tuproq unumdorligiga talablari va buni ildiz sistemalari tuzilishiga va boshqa sharoitlariga bog'liqligi. Sabzavot ekinlarining mineral va organik o'g'itlariga munosabati. Ildiz orqali va undan tashqari oziqlanish. O'g'itlash miqdori, usuli va muddatlarining mahsulot sifatiga ta'siri.

Sabzavot ekinlarini jinsiy va vegetativ ko'payishlari ularning biologik, agrotexnik va iqtisodiy afzalliklari va kamchiliklari. Vegetativ ko'payishda, ularning biologik, agrotexnik va iqtisodiy afzalliklari va kamchiliklari. Vegetativ ko'payish usullari (piyozbosh, tunganak va ildizlarni bo'laklashlar, havoiiy piyozchalar, kalamchalar, payvandlash, to'qimalar, o'stirish).

Sabzavot ekinlari urug'larining farqlovchi belgilari. Urug' moddalar joylanishlariga ko'ra urug'lar tasnifi. Unish – o'sish shart – sharoitlari, urug'lar tarkibidagi ingibitorlar. Urug'lar unuvchanliklarining saqlanish muddatlari va ayrim sabablar. Urug'lardagi turli sifatlar.

Kam tarqalgan sabzavot ekinlarini yetishtirish texnologiyasi fani bo'yicha:

Sabzavotchilikni ilmiy asoslari, sohaning rivojlanishi, vazifasi va kelajakdagi istiqbollari. Kam tarqalgan sabzavot ekinlari tarkibidagi biologik aktiv moddalar: vitaminlar, fermentlar, fitonsidlar, organik kislotalar, efir moylari va boshqalarning inson oziqlanishidagi ahamiyati. Kam tarqalgan sabzavotlarni iste'mol qilishning ilmiy asoslangan me'yorlari. Kam tarqalgan sabzavot ekinlarining va umumiy tavsifi.

Kam tarqalgan sabzavot ekinlarining xilma-xilligi, ularni jahonda va Respublikada yetishtirish hajmlari. Respublikada yetishtirilayotgan kam tarqalgan sabzavot ekinlarining botanik guruhlari. Kam tarqalgan sabzavot ekinlarining hayotiy davomiyligiga ko'ra tasniflash. Generativ (g'uncha, gul, tuguncha, meva) va vegetativ (yer ustki, barg, poyali, piyozli, mevali; yer ostki ildizmevali, tunganak mevali, ildiz tomirli, ildiz poyali) qismlari iste'mol qilinuvchi sabzavotlar.

Kam tarqalgan sabzavot ekinlarining botanik oilasi, kelib chiqishi va tarqalish xududlari. Kam tarqalgan sabzavot ekinlarining iste'mol organlariga ko'ra tasniflanishi. Kam tarqalgan sabzavot ekinlarining tashqi muhit omillariga munosabatlari. Kam tarqalgan sabzavot ekinlarining biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. O'zbekiston Respublikasi xududida ekishga tavsiya etilgan va rayonlashtirilgan kam tarqalgan sabzavot ekinlari navlarining tavsifi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” //2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni. – Toshkent, 2023.
3. Mirziyoyev Sh.M. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”// 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli qarori. – Toshkent, 2022.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”// 2021-yil 3-fevraldagi PF-6159-son farmoni. – Toshkent, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
6. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi. – Toshkent, 2002. – 224 b.
7. Azimov B.J., Bo‘riyev X.Ch. Sabzavot ekinlari biologiyasi. –T.: “UzMEDIN”, 2002.
8. Bo‘riyev X.Ch. “Havoskor bog‘bonlarga qo‘llanma”. – Toshkent, 2002.
9. Bo‘riyev X.CH., Sultonov K.S., Abdikayumov Z.A. Sevimli sabzavotlar. – Toshkent, 2014. – 152 b.
10. Bo‘riyev X.CH. ОВОЩЕВОДСТВО. Elektron darslik. 2004. – Toshkent, 2014.
11. Доспехов Б.А. Методика полевых экспериментов (основы статистической обработки результатов). - 5-э издание. - М.: Агропромиздат, 1985. - 351 с.
12. Zuyev V.I., Ataxodjayev A.A., Asatov Sh.I., Kodirxujayev A., Akromov U.A. Himoyalangan yer sabzavotchiligi. – Toshkent, 2018.
13. Zuyev V.I., Abdullayev A.G. Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 1997.
14. Zuyev V.I., Bo‘riyev X.Ch. Qodirxo‘jayev O.K. Azimov B.B. Kartoshkachilik. – T.: “G‘ofur G‘ulom nomli nashiryot-matbaa ijodiy uyi”, 2016.
15. Ostonakulov T.E., Zuyev V.I., Kodirxujayev R.K. Mevachilik va sabzavotchilik (Sabzavotchilik). – Toshkent, 2019. – 552 s.
16. Peregudov V.N. Hosil ashyolarini statistiq ishlov berish yo‘llari uslubiyati. – Moskva, 1988.
17. Normuradov D.S, S.A.Yunusov, Sh.I.Asatov, S.T.Sanayev, B.X.Xalmirzayev, U.Xurramov. Himoyalangan yer sabzavotchiligi. Darslik. ISBN-978-9943-9308-0-3. – Samarqand, 2023. – 518 b.
18. Normuradov D.S, I.T.Normuratov M.A.Xayitov, B.X.Xalmirzayev, S.I.Sadinov, X.Kurbonov. Ovoshevodstvo. Uchebnik. ISBN-978-9910-9784-6-3, – Samarqand, 2024. – 328 b.

19. Qishloq xo‘jaligida islohatlarni chuqurlashtirishga doir Qonun va me‘yoriy xujjatlar to‘plami. I-II tomlar, Mualliflar jamoasi. – Toshkent: “Sharq” nashriyot matbaa konserni, 1998.

20. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari. “Davlat Reyestri”. – Toshkent, 2022.

21. Ademiluyi B.O. Study on Effect of Age of Seedlings Transplant on the Performance of Tomato (*Lycopersicon esculentum*) in a Southwestern Nigeria // Journal of Agricultural Science and Technology, USA. March 2011, Volume 5, No.3, p.318-321.

22. Allen V. Barker. Science and Technology of Organik Farming. 2010 by Taylor and Francia. Group LLC.

23. De Souza A., Garcia D., Sueiro L., Licea L. and Porras E. Pre-sowing magnetic treatment of tomato seeds: effects on the growth and yield of plants cultivated late in the season // Spanish Journal of Agricultural Research (2005) 3(1), 113-122.

24. Richard Bird and Alex Barker. Growing potatoes a directory of varieties and how to cultivate them successfully. Lorenz Books. Anness Publishing Ltd 2016.

25. Farhadi A., Rezaie M. Evaluation of quantitative and qualitative traits of greenhouse cucumber (*Cucumis sativus* L.) _Khasib_ grafted on different Cucurbita rootstocks, Acta Horticulturae. 06/2015(1086):29-283.

26.. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

27. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

28. [http://www. Agron. planning/](http://www.Agron.planning/).

29. <http://www.bfpais.ru>. Plodovodstvo i vinogradarstvo

30.http://asiaxx.narod.ru/map_admin.htm. Sayt o plodovodstvo, vinogradarstvo, baxchevodstvo Kazaxstana, Kirgizii, Tadjikistana, Turkmenii i Uzbekistana.

31.<http://www.CNSHB.ru>. Plodovodstvo Uzbekistana.

32. <http://uzbekistan.uzpak.uz/F53.html>. Sad Uzbekistana.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100